



**“KELISHILDI”**

O‘zbekiston Respublikasi  
Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi  
direktori

  
A. Burxanov  
“ ” 2022-yil

**“TASDIQLAYMAN”**

O‘zbekiston Respublikasi  
Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr  
agentligi direktorining birinchi o‘rinbosari

  
A. Allaberganov  
“ ” 2022-yil

**O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi tuzilmalari va hududiy boshqarmalarida korrupsiyaviy havflarni aniqlash va ularga chek qo‘yish hamda korrupsiyani oldini olish bo‘yicha**

**“YO‘L XARITASI”**

T.r	Korrupsion xavf-xatarlar mazmuni	Amalga oshiriladigan tadbirlar va vazifalar	Amalga oshirish mexanizmi va bosqichlari	Muddati	Mas’ul ijrochilar
<b>Korrupsiyaga qarshi muvofiqlik Komplayens-nazorat tizimini to‘liq joriy etish va ularga malakali mutaxassislar ochiq tanlov asosida ishga qabul qilish</b>					
1.	Kadastr agentligi hamda Davlat kadastrlari palatasi va uning hududiy boshqarmalarida korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini amalga oshiruvchi tuzilmadagi vakant lavozimlarni to‘ldirish.	Kadastr agentligi hamda Davlat kadastrlari palatasi va ularning hududiy boshqarmalaridagi Komplayens-nazorat xizmati vakant lavozimlariga xodimlarni tayinlash choralarini ko‘rish.	Ushbu vakant joylarga tanlov e’lon qilish.  Tanlovga yuborilgan hujjatlarni umumlashtirish.  Tanlov o‘tkazish va tanlov natijalaridan	2022-yil mart-aprel	Komplayens-nazorat xizmati (B.Shamansurov),  Kadrlar bo‘limi (Sh.Olimov),  Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi

T.r	Korrupsion xavf-xatarlar mazmuni	Amalga oshiriladigan tadbirlar va vazifalar	Amalga oshirish mexanizmi va bosqichlari	Muddati	Mas'ul ijrochilar
			kelib chiqib, xodimlarni tayinlash		
2.	<p>Agentlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarini tizimli ravishda olib borish, korrupsiyaviy xavflarni baholash bo'yicha markaziy apparat tarkibida yangi tuzilma Komplaens-nazorat xizmati joriy etilishi natijasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirishga asoslangan huquqiy baza yaratish.</p>	<p>Amaldagi ichki idoraviy hujjatlarni o'rganib chiqib, xalqaro tajribalarga muvofiq, korrupsiyaga qarshi muvofiqlik tizimini joriy qilishga oid me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish.</p> <p><b>Bunda:</b></p> <p>2.1. Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatini ishlab chiqish.</p> <p>2.2. Korrupsiyaviy xatti-harakatlar to'g'risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko'rib chiqish reglamentini ishlab chiqish.</p> <p>2.3. Ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo'yicha yo'riqnomani ishlab chiqish chiqish.</p> <p>2.4. Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish to'g'risidagi nizomni ishlab chiqish.</p>	Ichki idoraviy hujjatlarni ishlab chiqish	2022-yil mart-may	<p>Komplayens-nazorat xizmati (B.Shamansurov)</p> <p>Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi (B.Rahmonov)</p>


T.r	Korrupsion xavf-xatarlar mazmuni	Amalga oshiriladigan tadbirlar va vazifalar	Amalga oshirish mexanizmi va bosqichlari	Muddati	Mas'ul ijrochilar
3.	Tizimda faoliyat yuritayotgan xodimlarning korrupsiya va uning oqibatlarini to'g'risida yetarli darajada bilim va ko'nikmalarga ega emasligi natijasida korrupsion xatti-harakatlar sodir etilishi kuzatilmoqda	Malakali xodimlarni tayyorlash va ularda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida nazariy hamda amaliy ko'nikmalarni shakllantirish.	Malaka oshirish o'quv kurslarini tashkillashtirish va o'tkazish ( <i>bukletlar, ko'rgazmali materiallar tayyorlash</i> ).	2022-yil davomida	Komplayens-nazorat xizmati ( <i>B.Shamansurov</i> )  Kadrlar bo'limi ( <i>Sh.Olimov</i> )
<b>Korrupsiyaga qarshi kurashish hamda uni oldini olish sohasida amalga oshiriladigan ishlar</b>					
4.	Agentlik tizimidagi xodimlar o'z faoliyatiga doir meyoriy-huquqiy hujjatlardan bexabarligi kadastr bo'yicha davlat xizmatlarini ko'rsatish sifatiga salbiy ta'sir o'tkazmoqda.  Xodimlar malakasini oshirish va jarayonga malakali mutaxassislarni jalb qilish orqali xodimlarning bilim va tajribalarini oshirish.	Reja-grafikka muvofiq mutaxassislarning malakasini oshirish.	Malaka oshirish reja-grafigini tasdiqlash va oliy o'quv yurtlari mutaxassislarni jalb qilgan holda o'quv kurslarini tashkil etish	2022-yil mart	Kadrlar bo'limi ( <i>Sh.Olimov</i> )  Komplayens-nazorat xizmati ( <i>B.Shamansurov</i> )

T.r	Korrupsion xavf-xatarlar mazmuni	Amalga oshiriladigan tadbirlar va vazifalar	Amalga oshirish mexanizmi va bosqichlari	Muddati	Mas'ul ijrochilar
<b>Faoliyat ochiqligi va shaffofligini ta'minlash va bunga keng jamoatchilikni jalb etish</b>					
5.	Kadastr agentligi hamda Davlat kadastrlari palatasi va uning hududiy boshqarmalariga ishga qabul qilish jarayonlarining ochiqligini ta'minlash	Agentlik tizimiga ishga qabul qilishni ochiq tanlov asosida amalga oshirish hamda tanlov doirasida o'tkaziladigan sinov tadbirlarini Internet tarmog'i orqali real vaqt rejimida kuzatishni nazarda tutuvchi tartib joriy etish.	Meyoriy huquqiy hujjatni ishlab chiqish va ijrosi ustidan doimiy nazorat o'rnatish	2022-yil mart-aprel	Kadrlar bo'limi ( <i>Sh.Olimov</i> )  Komplayens-nazorat xizmati ( <i>B.Shamansurov</i> )
6.	Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqligi to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari ijrosini ta'minlash	"Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-iyundagi "Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta'minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6247-son Farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 15-iyundagi "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatning rivojlanish holatini reyting baholash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 373-son	Meyoriy huquqiy hujjat asosida ijro uchun mas'ul etib axborot xizmatlari, murojaatlar bilan ishlash bo'linmalari hamda boshqa tegishli xodimlarni belgilash. Tashkiliy chora-tadbirlar natijasi yuzasidan har chorak yakuni bilan hisobot berib borish tizimini yo'lga qo'yish.	Doimiy, har chorak yakuni bo'yicha	Matbuot xizmati ( <i>N.Atamuratov</i> )  Tashkiliy nazorat va taxlil boshqarmasi  Komplayens-nazorat xizmati ( <i>B.Shamansurov</i> )

T.r	Korrupsion xavf-xatarlar mazmuni	Amalga oshiriladigan tadbirlar va vazifalar	Amalga oshirish mexanizmi va bosqichlari	Muddati	Mas'ul ijrochilar
		Qarori hamda boshqa sohaviy normativ-huquqiy hujjatlar ijrosi ta'minlash			
7.	Agentlik rasmiy veb-saytda ochiq ma'lumotlar sifatida joylashtirilishi kerak bo'lgan ijtimoiy ahamiyatga molik ma'lumotlarni e'lon qilishni tizimlashtirish	Ochiq ma'lumotlar sifatida joylashtirilishi kerak bo'lgan ijtimoiy ahamiyatga molik ma'lumotlar ro'yxatiga kiritilgan axborotlar rasmiy veb-saytning bosh sahifasida alohida bo'linga tizimlashtirilgan holda joylashtirish.	Tashkiliy chora-tadbirlarni amalga oshirish	Doimiy, har chorak yakuni bo'yicha	Matbuot xizmati (N.Atamuratov) Tashkiliy nazorat va taxlil boshqarmasi Komplayens-nazorat xizmati (B.Shamansurov)
8.	Agentlik huzurida tashkil etilgan Jamoatchilik kengashi faoliyatini takomillashtirish	Jamoatchilik kengashi a'zolari ishtirokida Agentlikning yarim yillik va yillik faoliyati sarhisobiga bag'ishlangan jamoatchilik eshituvlarini tashkil etish.	Tashkiliy chora-tadbirlarni amalga oshirish	2022-yil davomida	Komplayens-nazorat xizmati (B.Shamansurov)
<b>Ommaviy axborot vositalari bilan o'zaro hamkorlik va targ'ibot-tashviqot ishlari</b>					
9.	Jamoatchilik fikridan xabardor bo'lib turish korrupsiyaning joriy holatini baholash, uning sabablarini o'z vaqtida aniqlash orqali uning oldini olish imkonini beradi.	Agentlik tizimida korrupsiya holati, tendensiyalari va sabablari, korrupsiyaga qarshi ko'rilgan choralar samaradorligi to'g'risida jamoatchilik fikrini o'rganish bo'yicha anonim so'rovlar o'tkazish.	Tashkiliy chora-tadbirlarni amalga oshirish	Doimiy, har chorak yakuni bilan	Komplayens-nazorat xizmati (B.Shamansurov)  Matbuot xizmati (N.Atamuratov)

T.r	Korrupsion xavf-xatarlar mazmuni	Amalga oshiriladigan tadbirlar va vazifalar	Amalga oshirish mexanizmi va bosqichlari	Muddati	Mas'ul ijrochilar
10.	Agentlik tizimidagi tashkilotlarda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha olib borilayotgan faoliyat natijalari yuzasidan mavjud ma'lumotlarning shaffofligi va ochiqligini ta'minlash.	Agentlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish yo'nalishida olib borilayotgan amaliy tadbirlarni OAVda va ijtimoiy tarmoqlarda yoritib borish.	Tashkiliy chora-tadbirlar natijasi yuzasidan har chorak yakuni bilan hisobot berib borish	Doimiy, har chorak yakuni bilan	Komplayens-nazorat xizmati ( <i>B.Shamansurov</i> )  Matbuot xizmati ( <i>N.Atamuratov</i> )
11.	Agentlik vakolatlariga kiradigan asosiy vazifa va funksiyalarni aholiga ommaviy axborot vositalar orqali tushuntirish va targ'ibot qilinishi natijasida kadastr organlari tomonidan ko'rsatiladigan davlat xizmatlarining shaffofligini ta'minlash.	"Kadastr sohasi korrupsiyadan holi" mavzusini tegishli ko'rsatuv va eshittirishlarda yoritib borish, bunda sohaga oid tartib-taomillar va amalga oshirilayotgan islohotlar haqida nodavlat notijorat tashkilotlari, OAV ishtirokida davra suhbatlari tashkil etish.	Tashkiliy chora-tadbirlar	Doimiy, har chorak yakuni bilan	Matbuot xizmati ( <i>N.Atamuratov</i> )  Komplayens-nazorat xizmati ( <i>B.Shamansurov</i> )

**Kadastr agentligining  
Komplayens-nazorat  
xizmati boshlig'i**



**B.Shamansurov**